



ADABIYOT SOHASIDA ISMOILXON FAQIRIY YANGI IJODKOR

Yoqubova Safiya Xamdamovna
Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali
tillarni o‘qitish metodikasi kafedrası assistenti

Annotatsiya Ushbu maqolada Faqiriy ijodi adabiyotda yangilik kasb etishi Ijodkorning merosi orifona mazmuni, oshiqona ruhi bilan o‘zbek adabiyotida yangilik sifatida o‘rganilishi Faqiriy ijodini o‘rganilish tarixi va davr adabiy muhitida tutgan o‘rni, shoir devonining nusxalari, ularning tarkibi, shoir ijodida zullisonaynlik an‘analari, irfoniy-tasavvufiy motivlar, o‘zbekcha g‘azallarining irfoniy sintezi va badiiy obrazlarning majoziy, diniy, falsafiy talqini ochib berilgan; shoir she‘riyatida mavzular rang-barangligi, janr xususiyatlari, shoir ijodida payravlik, tatabbu‘ va naziralar bitish, uning lirik devonidagi g‘azal, qasida, qit‘a, tarjiot, soqiynoma, munojot, munoqaba, mussamat va mustazod turkumidagi she‘rlarning an‘anaviylik va novatorlik xususiyatlari aniqlangan. Ismoilxon Faqiriy adabiy merosi muhim ahamiyatga egaligi va uning ijod namunalari adabiyot ahliga yetib borishi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: yombi ijodkor, orifona mazmuni, oshiqona ruh, ma‘rifiy she‘riyat, devon adabiyoti, sohibi devon, bayoz tushunchasi

ИСМАИЛХАН ФАХИРИ – НОВЫЙ ТВОРЦ В ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация В данной статье творчество Факири является новинкой в литературе, наследие создателя исследуется как новизна в узбекской литературе с его орифонным содержанием, романтическим духом, история изучения творчества Факири и его место в литературной среде Узбекистана. время, копии кабинета поэта, их композиция, Зуллisanayn в традициях творчества поэта, мистико-мистические мотивы, мистический синтез узбекских газелей и художественных раскрывается образная, религиозная, философская интерпретация образов; многообразие тем в поэзии поэта, жанровые особенности, композиция произведений поэта, композиция стихов, татаббу' и назира, стихи газели, касыды, кита, тарджиот, сокинама, муноджот, мунокаба, муссамат и мустазад серии в его лирической книге определены характеристики традиционности и новаторства. Было сказано, что литературное наследие Исмаила Хана Факири важно и что его произведения дойдут до литераторов.

Ключевые слова: создатель, значение орифоны, романтический дух, просветительская поэзия, деванская литература, владелец девана, концепция баяза.

ISMAILKHAN FAHIRI – A NEW CREATOR IN LITERATURE

Annotation In this article, Fakhiri's work is a novelty in literature, the legacy of the creator is explored as a novelty in Uzbek literature with its orifon content, romantic spirit, the history of the study of Fakhiri's work and its place in the literary environment of Uzbekistan. time, copies of the poet's office, their composition, Zullisanayn in the traditions of the poet's work, mystical and mystical motives, mystical synthesis of Uzbek ghazals and artistic figurative, religious, philosophical interpretation of images is revealed; the diversity of themes in the poet's poetry, genre features, the composition of the poet's works, the composition of poems, tatabbu' and nazira, verses of the ghazal, qasida, kita, tarjot, sokiynama, munojot, munoqaba, musamat and mustazad series in his lyrical book are defined the characteristics of traditionality and innovation. It was said that the literary legacy of Ismail Khan Fakhiri is important and that his works will reach the literary community.

Key words: creator, meaning of oriphon, divine spirit, educational poetry, Devan literature, owner of the devan, concept of bayaz.

Kirish (Introduction). Har bir ulug‘ shoirning dunyoga kelishi alohida hodisa. Alohidaligi shundaki, chin shoir ijodiyoti millat ma’naviy hayotida yangi o‘zgarishlar, tafakkurda esa yuksalishlar paydo etadi. Shuningdek, haqiqiy shoir har qanday sharoitda ham xalqining ishonchlarini oqlash bilan bir qatorda, uning qalb tayanchi ham bo‘la oladi. Faqiriy ijodini o‘rganilish tarixi va davr adabiy muhitida tutgan o‘rni, shoir devonining nusxalari, ularning tarkibi, shoir ijodida zullisonaynlik an‘analari, irfoniy-tasavvufiy motivlar, o‘zbekcha g‘azallarining irfoniy sintezi va badiiy obrazlarning majoziy, diniy, falsafiy talqini ochib berilgan; shoir she’riyatida mavzular rang-barangligi, janr xususiyatlari, shoir ijodida payravlik, tatabbu’ va naziralar bitish, uning lirik devonidagi g‘azal, qasida, qit’a, tarjiot, soqiynoma, munojot, munoqaba, mussamat va mustazod turkumidagi she’rlarning an‘anaviylik va novatorlik xususiyatlari aniqlangan..

Faqiriyning mumtoz adabiyotning turli tarixiy bosqichlarida vujudga kelgan so‘fiya, kubraviya, qalandariya, naqshbandiya ta’limotlariga moyilligi, uning lirik she’rlarida ushbu motivlarning hayotiy voqeliklar bilan uyg‘un holda aks etishi isbotlangan. Shoir nomi davlat miqyosida ilk marta Shahrisabzning 2700-yilligiga bag‘ishlangan anjumanda O‘zbekiston birinchi Prezidenti tomonidan tilga olindi. Darahihat, doktor, professor Shodmon Vohidov hamda yosh olim, adibning nabirasi Mas’udxon Ismoilining say’u-g‘ayratlari bilan Faqiriy nomi jahon qomuslariga kirgan edi. Bu ma’noda Faqiriy ularning kashfiyoti deb aytsak xato bo‘lmas. So‘nggi yillarda barcha fanlar qatori adabiyot sohasiga ham alohida e’tibor berilib kelinmoqda. Shu o‘rinda yana bir mulohazani keltirish lozim deb o‘ylaymiz. Izlanishlar natijalari va undan chiqarilgan xulosalar fors-tojik adabiyotining tadrijiy shakllanish bosqichlarini belgilash, milliy adabiyot taraqqiyotida adabiy oqimlar va madaniy markazlarning o‘rnini aniqlash, tojik adabiyoti tarixida tasavvuf ta’limoti ildizlarini ochib berish hamda adabiy aloqalar, adabiy jarayon, adabiyot tarixi kabi fanlardan muhim manba bo‘lib xizmat qilishi

adabiyot sohasi uchun yangilik sanaladi. Ijodkorning taxallusi “Shahrisabziy” deb yuritilgan bo‘lsada shoirona taxallus emas, balki mazkur Vatanga mansublik guvohnomasidir, Faqiriy hazratlarining tug‘ilib o‘sgan vatanlari Markaziy Osiyoning qadimiy ilm-fan o‘choqlaridan bo‘lmish Shahrisabz shahridir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). XX asr o‘zbek ma’rifiy she’riyatining yombi ijodkori, devon adabiyotining kamtar vakili, alloma va shayx, Naqshbandiya tariqati murshidi komili, Payg‘ambar avlodi, zokir, ijodkor, shokir va sobir so‘z san’atkori, Faqiriy-Shahrisabziy hazratlari o‘zlarining devonu g‘azaliyotlari bilan adabiyotimizga yangitdan kirib keldi desak xato bo‘lmaydi. Birinchi prezident iltifotidan keyin Ismoilxon Faqiriy vorislarining ko‘ngli ko‘tarildi va adibning boy ijodi faolroq o‘rganila boshlandi. Xususan, professor Shodmon Vohidov hamda yosh olim, adibning nabirasi Mas’udxon Ismoiliylarning ushbu adib haqida ko‘plab ma’lumotlar ijodiga doir bir qancha ilmiy maqolalar bitishgan.

Demak, So‘nggi yillarda barcha fanlar qatori adabiyot sohasiga ham alohida e’tibor berilib kelinmoqda. Ismoilxon Faqiriy I., Homidov N. va boshqalar. Avlodlar bayozi.-Toshkent A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1996. Adib haqidagi dastlabki izlanishlar uning ijod namunalari haqida alohida so‘z boradi. Vohidov Sh.Fakiriy // Sobiq Rossiya imperiyasi hududida islom. Ensiklopedik lug‘at. 3-son. - Moskva: Sharq adabiyoti, 2001. - S. 107-10, Nosir Muhammad. Nasaf va Kesh allomalari. Tazkira - Toshkent: G‘afur g‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2001. - B. 49. Ushbu tazkirada Ismoilxon Faqiriy haqida alohida tariff berilgan. Vohidov. Sh, Erkinov.A, Shahrisabzlik xattot va shoirlar //Ming yillar merosi Shahrisabz. 2700.-Toshkent "Sharq" nashriyot -matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati 2002 B.126. Ismoilov M. Faqiriy va Najotiy ijodiy faoliyatlarining Shahrisabz ilmiy-adabiy muhitida tutgan o‘rni xususida // Shahrisabz shahrining jahon tarixida tutgan o‘rni. Xalqaro ilmiy konferensiya maruzalari tezislari. - Toshkent: Fan, 2002. – B. 143. Vohidov Sh. Les specificites paleographiques et codicologiques des fonds particuliers de Rawnaqi et Faqiri (Shahrisabz, O‘zbekiston) // Manuscripta Orientalia. 9-jild №3 2003 yil sentyabr - s. 52-56. Mirzo Kenjabekov Ilm o‘rganu xat o‘rganu odob o‘rgan. Sohibi devoni Faqiriy hazratlari // "Ma’rifat" gazetasi ,2004yil ,28-yanvar. Ismoilxon Faqiriy. Intizoramkim ulam gardi firoqing sumlarin //Ma’rifat 2004 yil , 17-mart Ismoilxon Faqiriy. Ahli duoni izlagil //Hidoyat. 2004. N4-b. 24-25. Vohidov Sh., Ismoilov M. Faqiriy olim, shoir va shayx // Moziydan sado. 2004 yil.- 4-son. Mirzo Kenjabek. Mumtoz shoir va komil shayx Fakiriy-Shahrisabziy // Sino. - 2004 yil (tanasi). - № 15. - B. 44-51 Hasanov A. XVI-XIX asrlarda shaharsozlik va me’morchilik (Qashqadaryo vohasi misolida): Nomzodlik dissertatsiyasi. – T.: 2008. 200-b. J. Qarshi shahrining XVIII asr ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi tarixidan. – Samarqand: 2008. 71-b.Ravshanov P. Naxshab va Kesh tarixi manbalari. – Qarshi: Nasaf, 2005. Faqiriy hazratlari biz o‘rgangan Oybek, G‘afur G‘ulom, Shayxzoda, Habibiy kabi adiblarga zamondosh esalar-da, shayxligi, islomiy hayoti, ijodining ilohiy ma’rifatga asoslangani bois nomlari ham, ijodlari ham aslo yuzaga chiqmagan, adib ham bunga zinhor parvo qilmasdan: «Bizning hazfporaga ham bir xaridor topilarda», deb

sabri jamil ko‘rsatgan edilar.[1] Mana, Allohning lutfu -karami bilan adib ijodiga xaridor topildi. Istiqolol zamoni u zotning merosiga talabgor chiqdi. Ko‘zlar ko‘nikkan tog‘lar orasida yam-yashil, pokiza bir cho‘qqi paydo bo‘ldi. Adib ijodiga qiziqishlar adabiyotshunoslar orasida ham ko‘payib bormoqda. ***Albatta har qanday adabiyot sohasida qalam tebratgan ijodkorning ismu-nasablari va taxalluslari o‘quvchini befarq goldirmaydi deb hisoblasak bo‘ladi.***[6] To‘liq ismlari - Ismoilxon ibn Ibrohim Xoja ibn Hidoyatulloh ibn Mirzo Kalon Abdulaziz Xojai Shahrissabziy.[11] Ushbu ma‘lumotlar ularning nabiralari Mas‘udxon Ismoiliy qo‘llaridagi ma‘lumotlar asosida yaratilgan devon va bayozlardan olingani asosli albatta. Taxalluslari Faqiriy-Shahrissabziy; she‘rlarida Faqiriy, Faqir shakllarida ham keladi. Xalili Ixvon taxalluslari ham bo‘lib, bu nomni tog‘alari shoir Hone Shukrulloh Xoja qo‘yganlar va undan shoirning tavallud tarixlarini chiqarganlar. Abjad hisobida bu taxallus raqamlaridan hijriy 1328-yil chiqadi.[1]

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). To‘plangan materiallar o‘zbek adabiyoti fanida keng qo‘llanilayotgan qiyosiy-tarixiy, ilmiy -tahliliy, qiyosiy tipologik metodlari yordamida tahlil etiladi.. Izlanishlar natijalari va undan chiqarilgan xulosalar fors-tojik adabiyotining tadrijiy shakllanish bosqichlarini belgilash, milliy adabiyot taraqqiyotida adabiy oqimlar va madaniy markazlarning o‘rnini aniqlash, tojik adabiyoti tarixida tasavvuf ta‘limoti ildizlarini ochib berish hamda adabiy aloqalar, adabiy jarayon, adabiyot tarixi kabi fanlardan muhim manba bo‘lib xizmat qilishi adabiyot sohasi uchun yangilik sanaladi shu sababli ham, tadqiqotni amalga oshirishda asosan qiyosiy uslubdan keng foydalanildi. Adibning merosi adabiyot sohasida o‘rganilishi lozim bo‘lgan yangidan - yangi mazmunli g‘azaliyotlari va purmano ijodi va devonlari kelajak avlod uchun ushbu sohada muhim manba bo‘lib xizmat qilsa ajabmas. Bu borada o‘zbek xalqi adabiyoti uzoq yillik tarixga egaligi va hanuzgacha yangi yangi ijodkorlar va mavzularni tadqiq etishni taqozo qilmoqda.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ismoilxon Faqiriy milodiy 1910-yil, hijriy 1328-yilda Shahrissabzda tavallud topdilar. Uch yoshda otalaridan, to‘rt yoshda ustoz bobolaridan judo bo‘lib, avval onalari, keyin tog‘alari tarbiyatlarida kamol topib, ilm-ma‘rifat sohibi bo‘ladilar. Adib 1980-yilda hozirgi Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani, Sariosiyo qishlog‘ida vafot etdilar.[11] Avlodlari hozirgi vaqtda mazkur manzilda yashaydilar. Faqiriy hazratlarining tug‘ilib o‘sgan vatanlari Markaziy Osiyoning qadimiy ilm-fan o‘choqlaridan bo‘lmish Shahrissabz shahridir.

Shahrissabz Rusiya bosqinidan keyin ham to 1917-yillargacha o‘z ma‘rifiy mavqeini saqlab kelgan.[2] Undan so‘ng maktab-madrasalar rasman yo‘qotilgan bo‘lsa-da, sayyidlar va tariqat mansublari yurti sifatida shu kungacha o‘z e‘tiborini yo‘qotmagan. Mustamlaka davrida Faqiriy, Ravnaqiy, Maxdum Hamidiy, shoir Qone‘ singari shayx va alloma-ijodkorlarning yashagani bunga dalildir[12]. Shahrissabzda necha-necha ulug‘ zotlar o‘tgan, ammo u tarixda Sohibqiron Amir Temur tug‘ilib o‘sgan yurt sifatida ham mashhurdir. Unda temuriylar dahmasi, aziz avliyolar marhadi, Amir Temurning jasadsiz maqbarasi mavjud. Shu bois shoir Shahrissabz xususidagi turkiy va forsiy she‘rlarida o‘z yurtlarini Sohibqiron nomi bilan ulug‘laydilar.

Bizni(ng) Vatan - joyi surur, aysh ila xalsi barcha hur, Ilmu ma‘orif konidur, yo‘s dilda armon o‘zgacha, deya shoir orzu-armonlari vatanda ilmu maorif ekanini izhor etadilar. Nomlaridagi “Shahrisabziy” degai ilova maxsus shoirona taxallus emas, balki mazkur Vatanga mansublik guvohnomasidir,[6]. Ismoilxon Faqiriy ilm-ma‘rifatli, ziyoli, e‘tiborli muftiy va qozilar avlodidandirlar. Shoirning bobolari Inoyatulloh Xoja O‘roq ibn Mirzo Kaloni Shahrisabz muftiysi edilar. Otalari Ibrohim Xoja O‘roq esa Shahrisabzda XV asrda Mirzo Ulug‘bek qurdirgan Jome’ masjidda imom-xatib, amir hukumatining shahar vakili (o‘roh), madrasa rahbari bo‘lganlar. 1914-yilda otalari vafot etgach, uch yashar Ismoilxon bobolari Inoyatulloh Xoja tarbiyatlarida qoladilar. Ul zot ham olamdan o‘tgach, mehribon onalari to‘rt-besh yashar o‘g‘lon tarbiyatlarida ulug‘ say‘u g‘ayrat ko‘rsatib, uni maktabga berib, savodxon qiladilar[3]. Sho‘rolar hukumati tuzilib, islomiy maktablar yopilgach, yana o‘zlari ta‘limni davom ettiradilar. Onalari ilm-ma‘rifatli otinoyi bo‘lib, Mahzuna taxallusi bilan she‘rlar yozganlar. Faqiriy “Devon”lari debochasida onalarini ko‘p ulug‘ ehtirom bilan zikr hiladilar. Ismoilxon Faqiriy to‘qqiz yoshlarida Navoiyni o‘qiydigan bo‘ladilar. Navoiyni tushunish uchun esa turkiy-o‘zbek tilini puxta bilish bilan birga, arab va fors lug‘atlaridan ham xabardor bo‘lmoq zarur. Faqiriy ham dovrug‘u dabdabaga, unvonu mansabga aslo qiziqmasdan, iymon-e‘tiqodda sobitqadam, mumtoz she‘riyatga sodiq yashaganlar, Zero, shoir yaxshi bilganlarki, hayot bugundan iborat emas. Zamonlar aylanadi. Vaqt o‘tishi bilan adib bilimlari va ijodga ishtiyoqlari ortib boradi. Faqiriy yosh bo‘la turib, Hoji Mirzo Hamiduddin Maxdum Hamidiy, tog‘alari Shukrulloh Xoja Hone’, bobolari Inoyatulloh Xoja O‘roh Jurmiy, Mullo Mirzo Fayzulloh Xoja Ravnahiy, Mirzo Umrbohiy-Shahrisabziy kabi ulug‘ insonlar qatori turadi desak mubolog‘a bo‘lmas. Savol tug‘ilishi mumkinki, XX asrda mustamlaka iskanjasida O‘zbekistonda irfoniy she‘riyat bo‘lganmi? Devon adabiyoti qanday adabiyot? Irfoniy ruh, ilohiy mazmun devon adabiyotining xos xususiyatlari bo‘lganidan, «devon adabiyoti» ta‘rifiga kirishsak. Devon adabiyoti saroy adabiyoti yoki saroy shoirlari degan ma’noda emas. Balki, tamoman aksinchadir. Devon adabiyoti XI asrda Movarounnahrda (bugungi O‘zbekiston zaminida) Qoraxoniylar davrida boshlangan, islomiy madaniyatdan bahra olgan, shu sababdan arab va fors adabiyotlaridan ta’sir topgan islomiy adabiyotdir. Qur’oni karim va hadisi sharif ma’nolarini o‘ziga singdirgan bu mumtoz adabiyot «majoz haqiqatning ko‘prigidir» degan hadisi sharifga asoslanadi, ya’ni majoz yo‘li bilan haqiqatni kuylaydi, majoziy muhabbatni bahona qilib, ilohiy ishqni tarannum etadi. Faqiriy ana shunday adabiyotning so‘nggi zabardast vakillaridan biridirlar. “So‘nggi”deyishimizga sabab: sho‘rolar tuzumida islomiy ilm-ma‘rifat taqiqlanib, irfoniy she‘riyatga ham futur yetdi, hatto 30-40-50-yillarda aruz vaznida yozish man etildi, bora-bora devon adabiyoti deyarli barham topdi. Keyingi adabiyotdan irfoniy ma’no qochdi, ilohiy ruh chekindi, oxirat g‘oyasi uzildi, jahon va asosan rus adabiyoti muhitida xalqchil-ommabop she‘riyat vujudga keldi. “Devon” istilohining ma’nosi ko‘p. “Devon” avvalo aruz vaznida bitilgan va arab alifbosi asosida tartib berilgan g‘azallar to‘plamining nomidir: “Devoni Navoiy”, “Devoni Xoja Hofiz”, “Devoni Fuzuliy” kabi. Devon tuzishga muvaffaq bo‘lgan shoirlarni “Sohibi devon” deb ulug‘laydilar. Davlat idorasi, mahkama, hukumat uyi ham devon

deyiladiki, aytganimizdek, devon adabiyotining bunga aloqasi yo‘q. Mumtoz adabiyotning hammasi devon adabiyoti bo‘lmasligi mumkin, lekin devon adabiyotining hammasi mumtoz, ya‘ni o‘lmas adabiyotdir ma‘no xususiyatni kasb etadi. Devoni Faqiriy haqida so‘z borar ekan, bevosita uning g‘azallarini eslamaslikni iloji yo‘qdur. Faqiriy devoni 1950-1965-yillarda tuzilgan bo‘lib, o‘zlari tanlab, saralab kiritgan she‘rlardan iborat. Devon mumtoz nazm san‘atining deyarli barcha turlaridan: g‘azal, muxammas, musaddas, musabba‘, musamman, mustahzod, masnaviy, ruboiyyot va qit‘alardan tarkib topgan. Kitobda tatabbu‘ va tazminlar birmuncha bo‘lib, muvashshax va mutoyibotdan hazil she‘rlardan ham holi emas. She‘rlarning ko‘pi asl san‘at namunalaridir. Devon an‘anasiga muvofiq, xuddi Navoiy, Fuzuliy va Nodiralar kabi, Faqiriy ham o‘z devonlariga debocha bitganlar. Debochada matla mavjud bo‘lib, mehribon va rahmli Alloh ismi bilan boshlanib, Haq taolaga hamdu sano aytish va hazrati Rasulullohga salovot keltirish bilan davom etadi. Unda shoirning qisqa hasbi hollari va dunyoda bir yodgor qoldirish ishtiyohlari yuksak odob va valiylarga xos xoksorlik bilan bayon etilgan. Ammo shoirning kamtarliklarida ham kuchli jasorat, yorqin iste‘dod va yuksak ma‘rifat nuri balqib turadi. Chunonchi, adib yozadilar: «Toki o‘n besh va o‘n olti yoshlarimdan boshlab, shoirlar zumrasiga qo‘shulishga jiddiy harakat ko‘rguzgan bo‘lsam-da, bu ishga, birinchidan, bilimsizlik, va ikkinchidan, zamonamizni(ng) kundalik o‘zgarishlari natijasida she‘r yozolmasdan va yozganlarim ham har joylarda beparvolik bilan solib va ba‘zilari esa birodaroni kiromiylar talablariga muvofiq ularga yuborilib, qo‘limda bori ham juzdonga darida va jarida bo‘lub yotar edi...» Bu qisqa so‘zda ko‘p ma‘no va qismat manzaralari bor. Chunonchi, **«zamonaning kundalik o‘zgarishlari»**, muallifning o‘z ta‘birlari bilan aytganda, **«sho‘rolar hukumati tashkil topib, butun O‘zbekiston va Tojikiston va Buxoro tufroqlarida ham hukmronlik shevasini yurgizgani»**dir. Ya‘ni, qadimiy madrasalar berkitilgan, xalqning tarixini yo‘qotishga urinilgan, dahriylik saltanati o‘rna- tilgan, mumtoz adabiyot tahqirlangan, ma‘rifatli iste‘dod sohiblari muvozanatini yo‘qotib, she‘r yozolmay qolgan. *Yillar o‘tib, shoir aytadilar:* «Ammo ko‘nglimdan goxho shundog kechar erdiki, «Ey tan, san dunyoga kelib nima Ahli dunyo - siymu zar, ahli hunar - fazlu kamol. Va bu ashyolarni(ng) o‘ziga yarasha xaridori ham topiladi. Chunonchi, Navoiy aytur: Sarvu gulu lola xaridori bor, Lek tikonning dagi bozori bor. Ya‘nikim har bir gulning o‘z xaridori bo‘lgani singari tikonning ham o‘z o‘rni borligi haqida alohida fikr yuritadilar. Shu o‘rinda bevosita Faqiriy hazratlarining ijodiga ham qiziqishlar ortgan. Idodkor devoni Alloh taoloning qudrati, san‘atini olqishlab, hamdu sanolar aytguvchi, Haq taoloning dargohiga yolborib munojot qilguvchi hamda sayyidi mursaliyn-hazrati Rasululloh alayhissalomga nat-hamd keltirguvchi g‘azallar bilan boshlanadi. Zotan, bu mumtoz devon adabiyotining odobu an‘anasidir. Turkiyda aytilgan “Paydo”, “Yo Rab”, “Bo‘ldim” radifli hamda “Zulfing girihi” kabi g‘azallar, “Sun‘ung Sani” mustahzodi, “Izlagil”, “Hasrat” kabi muxammaslar, forsiydagi “Chi shudi?” musaddasi va “Kunand” radifli tazmini musabba‘lari Faqiriy hazratlarining shoh asarlaridir. Lutfiy, Fuzuliy, Hiloliy, Amiriy (Amir Umarxon), Furqat, Sayyid Ahmad Vasiliy, Gulshaniy, Mullo Orif Gulxaniy, Muxlis Namangoniy, Maxdum Hamidiy, Ulfat (Nusrat), Boqiy, Tufayliy Yusufxon To‘ra Dehlaviy

kabi zotlarning mumtoz g‘azallariga bog‘langan turkiy va forsiy muxammaslar, Xoja Hofiz Sheroziy, Boborahim Mashrab baytlari asosida bitilgan tazminlar, tatabbu’ va payravlar favqulodda san‘at durdonalaridir. Bular Faqiriy iste’dodi, ilmu ma’rifati, ishq muhabbati izhoriga maydon va imkon ochgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqoridagilarga asoslanib, Faqiriy o‘zbek va fors tillarida ijod qilgan zullisonayn shoirdir. Ijodkorning merosi orifona mazmuni, oshiqona ruhi bilan mustamlaka davri o‘zbek adabiyotida yangilik desak adashmagan bo‘lamiz. Adibning merosi adabiyot sohasida o‘rganilishi lozim bo‘lgan yangidan - yangi mazmunli g‘azaliyotlari va purmano ijodi va devonlari kelajak avlod uchun ushbu sohada muhim manba bo‘lib xizmat qilsa ajabmas. Bu borada o‘zbek xalqi adabiyoti uzoq yillik tarixga egaligi va hanuzgacha yangi yangi ijodkorlar va mavzularni tadqiq etishni taqozo qilmoqda. Shu nuqtayi-nazardan adabiy merosimizning mazkur jihatlarini o‘rganish, tasavvuf va mumtoz poetikaning insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotidagi ta’sirini aniqlash bugungi kunning dolzarb mavzulardan biri hisoblanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1- Kattaev K. Maxdumi A’zam va Dahbed. Samarqand Sutdiyon, 1994.- B.73. 2. Faqiriy I., Homidov N. va boshqalar. Avlodlar bayozi.-Toshkent A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1996.
- 2- Vohidov Sh.Fakiriy // Sobiq Rossiya imperiyasi hududida islom. Ensiklopedik lug‘at. 3-son. - Moskva: Sharq adabiyoti, 2001. - S. 107-108.
- 3- Nosir Muhammad. Nasaf va Kesh allomalari. Tazkira - Toshkent: G‘afur g‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2001. - B. 49.
- 4- Vohidov. Sh, Erkinov.A, Shahrisabzlik xattot va shoirlar //Ming yillar merosi Shahrisabz. 2700.-Toshkent "Sharq" nashriyot -matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati 2002 B.126
- 5- Ismoilov M. Faqiriy va Najotiy ijodiy faoliyatlarining Shahrisabz ilmiy-adabiy muhitida tutgan o‘rni xususida // Shahrisabz shahrining jahon tarixida tutgan o‘rni. Xalqaro ilmiy konferensiya maruzalari tezislari. - Toshkent: Fan, 2002. – B. 143.
- 6- Vohidov Sh. Les specificites paleographiques et codicologiques des fonds particuliers de Rawnaqi et Faqiri (Shahrisabz, O‘zbekiston) // Manuscripta Orientalia. 9-jild №3 2003 yil sentyabr - s. 52-56.
- 7- Mirzo Kenjabekov Ilm o‘rganu xat o‘rganu odob o‘rgan. Sohibi devoni Faqiriy hazratlari // "Ma’rifat" gazetasi ,2004yil ,28-yanvar.
- 8- Ismoilxon Faqiriy. Intizoramkim ulam gardi firoqing sumlarin //Ma’rifat 2004 yil , 17-mart
- 9- Ismoilxon Faqiriy. Ahli duoni izlagil //Hidoyat. 2004. N4-b. 24-25
- 10- Vohidov Sh., Ismoilov M. Faqiriy olim, shoir va shayx // Moziydan sado. 2004 yil.- 4-son.

- 11- Vohidov.Sh ,Ismoilov .M //O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 2005.-B.213
- 12- Mirzo Kenjabek. Mumtoz shoir va komil shayx Fakiriy-Shaxrisabziy // Sino. - 2004 yil (tanasi). - № 15. - B. 44-51
- 13- Hasanov A. XVI-XIX asrlarda shaharsozlik va me‘morchilik (Qashqadaryo vohasi misolida): Nomzodlik dissertatsiyasi. – T.: 2008. 200-b.
- 14- Ko‘charov J. Qarshi shahrining XVIII asr ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi tarixidan. – Samarqand: 2008. 71-b.
- 15- Ravshanov P. Naxshab va Kesh tarixi manbalari. – Qarshi: Nasaf, 2005. 120-b
- 16- Yakubava S.H. American Journal of Scieneseand Humanitly Recearch. Comparative analysis of the interpresentation as a genre in travel novels in uzbek and world literature. <http://theusajournals.com/index.php/ajsshr/article/view/1015> 2023.7.164
- 17- Yoqubova S. H. Idea scientific journal. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7789626>
Pretsident birlik va Pretsident nom, ularni ng o‘zbek lingvomadaniy jamiyatda qo‘llanilishi. 2023, 23-39 bertar. Yakubova, S. H. (2024). Ismoilxon Faqiriy o‘zbek adabiyotida yangi va yorqin ijodkor. Innovative development in educational activities, 3(5), 20–27. <https://doi.org/10.5281/zenodo.1082355>.